

TA'LIM MUASSASALARIDA "KELAJAK SOATI" DARSLARI DOIRASIDA QATAG'ON QURBONLARI HAYOTI VA FAOLIYATIGA DOIR TARG'IBOT SSENARIYSI

4-mavzu: Xorazm jadidlarining vatan mustaqilligi hamda ta'limni rivojlantirish yo'lidagi harakatlari

Dars maqsadi: O'quvchi yoshlarga Xorazm jadidchilik harakati namoyondalari va ular amalga oshirgan ishlar haqida ma'lumotlar berish orqali jadid ma'rifatparvarlarining faoliyati va ilmiy-badiiy merosi bilan yaqindan tanishtirish.

Annotatsiya: Ushbu dars senariysida Xorazm jadidchilik maktabining yuzaga kelishi hamda shu maktabning ma'rifatparvar namoyondalari haqida ma'lumotlar beriladi. Xorazmlik jadidchilik harakati o'zining chuqur ma'rifiy va ta'limiy islohotlari bilan nafaqat o'sha davr Xorazmining, balki butun mintaqaning jamiyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda esa xorazmlik jadidlarning ma'rifiy qarashlari pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular ilgari surgan ta'limdagi yangi metodlar, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish kabi g'oyalar zamonaviy pedagogik jarayonlarda asosiy o'rin olgan. Xususan, insonparvarlik, milliylikni hurmat qilish, ijodkorlikni rag'batlantirish – bularning barchasi bugungi ta'lim tizimining muhim qismidir. Shu sababli, Xorazmlik jadidlarning ma'rifiy merosini chuqur o'rganish va ularni zamonaviy pedagogik amaliyotga tatbiq etish nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki kelajak avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim sohasidagi islohotlarni yanada samarali va ma'nodor qilishda muhim manba bo'lib qoladi.

🎯 Aniq maqsadlar:

1. O'quvchilarga Xorazm jadidchilik harakatining vujudga kelishi va uning tarixiy, ta'limiy va ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati haqida aniq ma'lumotlarga tayanib, ilmiy asoslangan holda tushunchalarni berish.
2. O'quvchilarga Xorazm jadidchilik harakati namoyondalarining ma'rifiy, madaniy, o'zlikni anglash, xalq savodxonligini oshirish, ilm-fanni taraqqiy toptirishga oid harakatlari haqida ma'lumotlar berish.
3. O'quvchilarda Xorazm jadidchilik harakati namoyondalarining faoliyatini o'rgatish vositasida vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, o'zligini anglash, o'z tarixiga hamda milliy qadriyatlariga hurmat tuyg'usini shakllantirish hamda mustaqil fikrlash imkoniyatlari kengaytirish.
4. O'quvchilarga Xorazm jadidchilik harakati namoyondalarining jasorati, xalqparvarligi, zamonaviy bilimlarni egallashga bo'lgan intilishi va natijalarini, o'z

tanlagan yo'lida sobit qadam ekanligi kabi fazilatlarni ibrat, namuna sifatida ko'rsatish.

Asosiy g'oyalar: Jadidchilikning asosiy g'oyasi — xalqni uyg'otish, uni jaholatdan ma'rifat sari yetaklash edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun yangi usuldagi maktablar ochildi, yangi darsliklar yaratildi, gazeta va jurnallar chop etildi, teatr vositasida ilm olish, o'qish va millat yoshlarini uyg'otish kabi fikrlar targ'ib qilindi. Bu harakat o'z zamonasida Turkistonning deyarli barcha hududlarida tarqaldi va shiddat bilan faoliyat olib bordi. Xorazmda jadidchilik harakati chuqur tarixiy ildizlar, kuchli intellektual salohiyat, madaniy uyg'onish, adabiyot, san'at bilan uyg'unlashgan. Xorazm jadidchilik namoyondalari Matmurod Mahzum, Komil Xorazmiy, Shamsiddin Xorazmiy, Otaxon Domla kabi o'z davrining ilg'or vakillari Xorazmda nafaqat yangi maktablar tashkil etdilar, balki xalq ongini yangilash yo'lida samarali ishlar olib bordilar. Ular butun jamiyatni tarbiyalash, ma'rifatli qilish orqali taraqqiyotga xizmat qildilar. Xorazmlik jadidlarning faoliyati o'z davrida Xorazmda va butun Turkistonda ta'lim, madaniyat va ma'rifat sohalarida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ularning ilgari surgan g'oyalari va amalga oshirgan islohotlari zamonaviy ta'lim tizimining shakllanishida poydevor bo'ldi. Bugungi kunda ham ularning ta'limga yondashuvi, milliy qadriyatlarni himoya qilish va zamonaviy bilimlarni uyg'unlashtirish sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Xorazmlik jadidlarning faoliyati yosh avlodning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, milliy madaniyatni asrash va yangi ilmiy yutuqlarni o'zlashtirish yo'lida muhim tarixiy tajriba sifatida o'rganilmoqda.

☒ **Darsdan keyin kutiladigan natijalar:**

1. Aqliy va tushunchaviy:

- O'quvchilar Xorazmda faoliyat yuritgan jadidchilik harakati namoyondalari faoliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi, jadidchilik harakatining tarixiy va ma'naviy ahamiyatini tushunadi.
- Xorazmlik jadidlarning faoliyati bilan tanishish natijasida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini kengayadi;
- O'sha davrdagi va bugungu kundagi ta'limiy islohatlarni qiyoslash, tahlillash tajribasi shakllanadi;
- o'quvchilarning milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlarni anglash va amal qilish motivatsiyasi ortda, Vatanparvarlik mas'uliyati kuchayadi;

2. Hissiy va qadriy:

- Xorazmda faoliyat yuritgan jadidchilik harakati namoyondalarining fidoyiliklari, Vatan taqdirini qayg'urish, yoshlarni uyg'otishga, chin ilimli inson bo'lishga undagan g'oyalari mohiyatini anglaydilar;

- Xorazmda faoliyat yuritgan jadidchilik harakati namoyondalarining ta'lim, tarbiya, axloq, milliy yuksalish, o'zlikni anglash, dunyoviy bilimlarni egallash va Vatanni istiqbolga yetkazish orzularini tushunish orqali o'quvchilar qalbida ham mas'uliyat, milliy o'zlikni anglash hurmat qilish va Vatanga xizmat qilish motivatsiyasi, intilishlari mustahkamlanadi.

3. Amaliy ko'nikmalar:

- O'quvchilar ta'lim olish, zamonaviy bilimlarni egallash, vatanparvarlik, jasorat, fidoyilik, hamkorlik kabi qadriyatlarga nisbatan ongli yondasha boshlaydi.

- O'quvchilar jadidchilik harakatining faoliyati, uning yuzaga kelish sabablarini mustaqil tahlil qila oladi.

4. Ijtimoiy-pedagogik:

- Xorazmda faoliyat yuritgan jadidchilik harakati namoyondalari misolida jamiyatda adolat uchun kurashish, ma'rifatga intilish, xalqi uchun mas'uliyat bilan xizmat qilish, Vatan ravnaqi uchun hissa qo'shishga intilish, zamonaviy kasblarni egallash zaruratini anglab yetadi.

- Xorazm jadidchilik harakati haqidagi bilimlari vositasida o'quvchilar o'z harakatlarida, sifida, oilasida ma'naviy muhitni yuksaltirishga intiladi.

Metapredmet: Xorazmda faoliyat yuritgan jadidchilik harakati namoyondalari haqida tarix, adabiyot, tarbiya darslari vositasida kengroq bilimlarga ega bo'lib boradilar.

- **Tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmasi shakllanadi:** O'quvchilar jadidlar harakatini o'rganish natijasida tarixiy voqealar va shaxslar faoliyatini, o'sha davr ta'limiy muhitini mustaqil tahlil qila oladilar hamda ularni bugungi davr taraqqiyoti bilan bog'laydilar.

- **Fuqarolik qadriyatlariga asoslangan dunyoqarash shakllanadi:** O'quvchilar jadidlar faoliyatidan ibrat olib, o'z shaxsiy hayotiga ijtimoiy foydali xatti-harakatlarni tadbiq qilishga intiladi.

- **Jamoadi ishlash va ijtimoiy muloqot ko'nikmalari shakllanadi:** Guruhli topshiriqlar, fikr almashish, munozara-debat orqali hamkorlikda ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

- **Axborotni qidirish va uni baholash:** Ma'lumotlarni, dalillarni mustaqil izlab topish, tahlil qilish va manbalardan foydalanish ko'nikmalari rivojlanadi.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli: izohli suhbat, video kontentlar, interfaol topshiriqlar va qo'shimcha audio vizual manbalardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to'plami:

- ssenariy;
- Xorazmda faoliyat yuritgan jadidchilik harakati namoyondalari haqida ma'lumotlar;
- video kontentlar ;
- interfaol topshiriqlar;
- taqdimot.

Dars tuzilishi:

1 qism. Motivatsion.

Darsning birinchi qismining maqsadi - o'quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. Jumladan jadidlarning hikmatli so'zlaridan foydalanib, ta'sirchan nutq orqali o'quvchilarda jadidlar faoliyatiga qiziqish va motivatsiya uy'gotishga, o'quvchilarining kelgusi faoliyatida jadidlar merosidan foydalanishga yo'llovchi ma'ruza va muhokamaga asoslanadi.

2-qism. Asosiy.

Asosiy qismda o'quvchilar Xorazm jadidchilik harakati va uning tarixiy ahamiyati, namoyondalari hamda ularning ilm-ma'rifat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar beriladi. Xorazm jadidchilik harakati namoyondalarining merosidan bugungi kunda unumli foydalanish haqida ko'nikmalar shakllantiriladi.

3-qism. Yakuniy

Darsda taqdim etilgan ma'lumotlar, egallangan yangi bilimlar va tajribalarni mustahkamlash, umumiy xulosalarni bayon etish va mashg'ulotga yakun yasash.

KIRISH. Motivatsion qism.

O'qituvchi: "Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar! Sizlar bilan jadid ma'rifatparvarlari haqida bir necha darslar davomida o'rganib kelayapmiz.

Bugun sizlar bilan Xorazmda faoliyat yuritgan jadidchilik harakati namoyondalari faoliyatini o'rganamiz.

Xorazm — tarixan ilm-fan va madaniyatning markazi bo'lib, bu yerda jadidchilik harakati o'zining noyob shaklini oldi. Xorazmda jadidlar faoliyati zamonaviy maktablar tashkil qilish, darsliklar yaratish, gazeta-jurnallar nashr qilish, diniy-ta'limiy va madaniy yangilanishlarni targ'ib etishga qaratilgan edi. Bu jarayonda ko'plab ijodkorlar, olimlar va ma'rifatchilar faol ishtirok etdi. Xorazmda faoliyat yuritgan jadidlar Islomxo'ja Ibrohimxo'ja o'g'li, Avaz O'tar, Muhammad Yusuf Devonzoda, **Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobooxun Salimov, Bekjon Rahmon**, Maryam Sultonmurodova, Jumaniyoz Ollaquliyev, Matmurod Mahzum, Vadud Mahmud kabi ma'rifatparvarlar Xorazmda xalq hayotini ta'lim-tarbiya, adabiyot, san'at, madaniyat vositasida yuksaltirishga intildilar. Xorazm jadidchilik harakatida faol qatnashgan boshqa muhim shaxslar ham ko'plab bo'lib, ular o'zining ta'lim, ma'rifat va madaniyat sohasidagi xizmatlari bilan ajralib turadi. Ushbu shaxslar xorazm jamiyatining ma'naviy va intellektual rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va yangi uslubdagi ta'lim tizimining shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Ammo, ularning aksariyati keyinchalik totalitar tuzum tomonidan “xalq dushmani” deb e'lon qilindi, ma'rifatparvarlik harakatlari tuhmatga uchradi, ba'zilar qatl, ba'zilar surgun qilindi. Natijada jadidlarning hayotbaxsh g'oyalari ildiziga bolta urildi.

Bugungi darsimizda biz:

- Xorazmda qaysi ma'rifatparvarlar jadidlar sifatida faoliyat olib borgan?
- Ular Xorazmda qanday islohotlarni amalga oshirishgan?
- Ulardan qanday ma'naviy meros qolgan?
- Qaysi ma'rifatparvarlar qatag'on qurboni bo'lishgan?
- Bugungi kunda jadid bobolarimiz va ular qoldirgan yuksak meros qanday qadr topayotgani haqida birgalikda o'rganamiz.

Asosiy qism. Xorazmda jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishi

XORAZMDA JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING MA'RIFIY MEROSI

Xalqning taqdiri ba'zan bir necha dadil qadam, bir necha jasoratli fikr bilan o'zgaradi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida butun Turkiston bo'ylab esgan yangilanish shamoli – jadidchilik harakati aynan shunday tarixiy burilishlardan biri edi. Bu harakat eskirgan ta'lim va ijtimoiy tizimlar o'rniga zamonaviy tafakkur, tanqidiy yondashuv va ilmga asoslangan jamiyat barpo etishni ko'zlagan edi. Jadidchilikning asosiy g'oyasi xalqni uyg'otish, uni jaholatdan ma'rifat sari yetaklash bo'ldi. Buning uchun yangi usuldagi maktablar ochildi, darsliklar yaratildi, gazeta va jurnallar chop etildi, sahna orqali fikrlar targ'ib qilindi. Bu harakat o'z zamonasida Turkistonning deyarli barcha hududlarida ildiz otdi, lekin har bir mintaqada u turlicha tus oldi. Xorazmda jadidchilik harakati chuqur tarixiy ildizlar, kuchli intellektual salohiyat va madaniy uyg'onish bilan uyg'unlashdi. Matmurod Mahzum, Komil Xorazmiy, Shamsiddin Xorazmiy, Otaxon Domla kabi o'z davrining ilg'or vakillari Xorazmda nafaqat yangi maktablar tashkil etdilar, balki xalq ongini yangilash yo'lida samarali ishlar olib bordilar. Ular maktablar orqali emas, balki butun jamiyatni tarbiyalash orqali taraqqiyotga xizmat qildilar.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan ma'rifiy yangilanishlar, xususan jadidchilik harakati, zamonaviy ta'lim tizimini joriy qilish, xalqni savodsizlikdan qutqarish, milliy ongni uyg'otish maqsadida yuzaga keldi. Bu harakatning mohiyati man'anaviy ta'lim usullarini yangilash, yodlash o'rniga tushunishga asoslangan ta'lim berish, ilm-fan, madaniyat va jamiyat taraqqiyotini ilgari surish edi. Xorazm tarixan ilm-fan va madaniyatning markazi bo'lib, bu yerda jadidchilik harakati o'zining noyob shaklini oldi. Xorazmda jadidlar faoliyati zamonaviy maktablar tashkil qilish, darsliklar yaratish, gazeta-jurnallar nashr qilish, diniy-ta'limiy va madaniy yangilanishlarni targ'ib etishga qaratilgan edi. Bu jarayonda ko'plab ijodkorlar, olimlar va ma'rifatchilar faol ishtirok etdi.

Jadidlar Xiva xonligida 1914-yilda “**Yosh xivaliklar**” nomli partiyani tashkil etganlar. O‘z safida milliy ziyolilar, hunarmand, dehqon, savdogarlar, islom ulamolari va ayrim davlat amaldorlarini birlashtirgan. “Yosh Xivaliklar” partiyasiga Polvonniyoz hoji Yusupov asos soldi. Jumaniyoz Boboniyozov, Bobojon Yoqubov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Nazir Sholikorov, Sultonqori Jumaniyozov, Xudoybergan Devonov, Husaynbek devonbegi Matmurodov, Muhammadyorxo‘ja Abdullayev partiyaning faollari edi. Partiya dasturining asosiy maqsadi ta’limiy, madaniy islohotlar o‘tkazish, mamlakatda konstitutsiyaviy monarxiya o‘rnatish, xalqni ma’rifatli qilish bo‘lgan.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, islohotchi sifatida maydonga chiqib, Xorazmda faoliyat yuritgan jadidchilik harakatining namoyondalaridan kimlarni bilasizlar?

O‘quvchilar: O‘quvchilar javob berishadi.

O‘qituvchi: Keling sizlarni Xorazmda faoliyat yuritgan jadidchilik harakatining namoyondalari va ularning amalga oshirgan ishlari haqida ma’lumot bersam.

ISLOM XO‘JA IBROHIM XO‘JA O‘G‘LI (1872-1939)



Xiva xonligining bosh vaziri va jadidlar harakatining liderlaridan biri. U 1872 yilda Xonqa bekligida tug‘ilgan. Xivadagi maktab va madrasa tahsilini olgan Islomxo‘ja oldiniga xon saroyida zakotchi sifatida ishlaydi. 1889 yilda esa 17 yoshli Islomxo‘jani Feruzxon Xivadan keyin ikkinchi o‘rinda turuvchi Hazoraspdek muhim strategik, savdo shahriga hokim qilib tayinlaydi. Oradan vaqt o‘tib, davlat boshqaruvida ma’lum bir

tajribaga ega bo‘lgan Islomxo‘ja 26 yoshida Feruzxonning bosh vaziri sifatida

yana Xivada faoliyatini davom etdiradi. Islomxo‘janing 10 banddan iborat dastur asosida xonlikda islohotlar o‘tkazdi. Islohot dasturiga ko‘ra, ayni paytda poytaxt Xiva shahrining yangi loyihasi tuzilib, unga ko‘ra shahar eniga uch barobar kengayishi kerak edi. 1910-1913 yillar oralig‘ida Xivaning o‘zida islohot dasturiga ko‘ra pochta-telegraf binosi, Nurillaboyda qishki saroy, zamonaviy kasalxona, yangidan yana bitta jadid maktabi barpo etiladi.

Shuningdek, 1910-1913 yillar oralig‘ida Islomxo‘janing tashabbusi va bevosita mablag‘i hisobiga Xivadan tashqari Yangi Urganch, Shovot, Gurlan, Qo‘ng‘irot, Qo‘shko‘pir va Mo‘ynoq shaharlarida ham jadid maktablari tashkil etiladi.

Islomxo‘ja 1913 yilda 9 avgustida suiqasddan o‘ldirilgan.

SALIMOV BOBOOXUN (1877-1929)



Salimov Bobofoxun (1877-1929) yilda Xiva xoni qozikaloni Salimoxun oilasida to‘ng‘ich farzand bo‘lib tug‘ilgan.

Xiva shahridagi Olloqulixon madrasasida tahsil olgan. Ushbu shahardagi madrasada 1912 yilgacha mudarrislik qilgan. Otasining vafotidan so‘ng 1912-1916 yillarda Xiva xoni qozikaloni bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan.

1917-yil aprel oyida Husayinbek Matmurodov, Nazir Sholikorovlar singari “Yosh xivaliklar” bilan birga Xivada o‘tkazilgan namoyish tashabbuskorlaridan.

“Yosh xivaliklar” harakati va xalq talabi bilan Xorazmda tashkil etilgan parlament “Idorai marshrutiya” raisi bo‘lgan va bu parlament iyul oyida xon va mutassib amaldorlar tomonidan tugatib yuborilgan. 1918-20 yillarda Petro-Aleksandrovsk, Mang‘it hududlarida siyosiy qochqinlikda yashashga majbur bo‘lgan.

1920 yil 2 fevralda Xiva xonligi tugatilib Xorazm xalq respublikasi tashkil etilishiga boshchilik qilgan va Xivaga qaytib kelgan. Muvaqqat inqilobiy hukumatning Xiva xonligi ag‘darilganligi va respublika tashkil etilganligi

to'g'risidagi manifestni yozishga rahbarlik qilgan. 1920 yil 9 apreldagi muvaqqat inqilobiy hukumat davrida adliya noziri qilib saylangan. Xalq sudlari, militsiya va adliya tizimi tashkil etilishiga boshchilik qilgan.

1923 yilgi to'rtinchi Butunxorazm qurultoyida XSSRning adliya noziri o'rinbosari, 1924 yil 26 martdan adliya noziri qilib saylangan. 1924 yilda o'tkazilgan Xorazm ruhoniylarining birinchi qurultoyi o'tkazilishiga rahbarlik qilgan. Afg'onistonga elchi qilib tayinlangan.

1924 yildagi milliy chegaralanish siyosatidan so'ng Gurlan va Mang'it hududlaridagi uylarida yashab, o'zining xususiy yerlarida dehqonchilik qilgan. 1929 yil 10 mayda o'z uyi atrofida o'ldirib ketilgan. Qabri Qoraqalpog'istonning Amudaryo tumanidagi Eshonyop bo'yi qishlog'idagi Salomatbuva qabristonida.

AVAZ O'TAR (1884-1919)



Xorazm ma'rifatparvar shoirlaridan. Asarlarida jadidchilik g'oyalari aks etgan va doimiy ravishda Xorazm jadidlarini qo'llab quvvatlagan shoir. Qrimda nashr etiladigan "Tarjimon" gazetasini o'qib uni Xorazmda targ'ib qilib borgan. Xivada 1905 yilda jadid maktabi ochgan Mamat mahramning eng yaqin maslakdoshi bo'lgan.

Avaz dastlab Xivadagi eski maktabda, keyin esa Madaminxon madrasasida tahsil oladi. Ajdodlari, xususan otasi Polvonniyoz Gadoniyoz o'g'li xon saroyida O'tar lavozimida faoliyat ko'rsatgan va o'z davrining mashhur ijodkorlaridan Ogahiy, Komil Xorazmiy, Bayoniylar bilan do'st tutingan. Shu bois Avaz ham sulola nomidagi O'tar so'zini o'ziga taxallus qilib tanlagan. O'tar Xiva xonlarining xos sartaroshi bo'lgan.

Otasi va uning ijodkor do'stlari ta'sirida Avaz adabiyotga havas ruhida voyaga yetib, madrasada o'qib yurgan davridayoq Sharq adabiyoti mumtoz vakillaridan Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiylarning ijodiga ixlos qo'yib, ularning merosi bilan yaqindan tanishib, she'rlar yoza boshlagan.

U doimiy ravishda rus, ozarbayjon, tatar tillarida chiqadigan gazetalarni muntazam ravishda kuzatib borgan. Toshkent, Farg'ona va Samarqandda chop etilgan jadid matbuoti bilan bevosita aloqada bo'lib, yozgan g'azallaridan ba'zilarini ularda nashr ham ettirdi.

U doimiy ravishda rus, ozarbayjon, tatar tillarida chiqadigan gazetalarni muntazam ravishda kuzatib borgan. Toshkent, Farg'ona va Samarqandda chop etilgan jadid matbuoti bilan bevosita aloqada bo'lib, yozgan g'azallaridan ba'zilarini ularda nashr ham ettirdi.

Avaz O'tarning "Faloniy" nomli hajviy she'rlar turkumi, «Millat», «Hurriyat»; «Topar erkan, qachon», «Xalq», «Zamon» kabi jadidlar g'oyalarini ilgari suruvchi she'rlari adabiyotimiz mulkiga aylangan.

DEVONOV XUDOYBERGAN (1878-1938)



Xorazmdagi jadidchilik harakatining yetuk liderlaridan biri, davlat va jamoat arbobi, kinorejissyor. O'rta Osiyoning mahalliy xalq vakillari ichidan yetishib chiqqan birinchi foto va kinooperatori, rejissyori Xudoybergan Devonov-1878 (ayrim manbalarida 1879)yili Xivada, tavallud topgan.

Vilgelm Pennerdan 1890 yildan boshlab foto, 1907 yildan esa kino sirlarini o'rgangan Xudoybergan, oddiy avom kishilar va mutassib ruhoniylarning

“Shayton suratchi”, “Afsungar kinochi” deya qarashlariga qaramay, taraqqiyot

mahsuli bo'lgan mo'jizaviy olamga qadam qo'ydi. Bu borada uni ma'rifatparvar Xiva xoni Muhammad Rahimxon II – Feruz uni qo'llab-quvvatlagan. Shu boisdan ham Xudoyberganni Feruz saroyga ishga oldi, o'zi bilan birga 1907 yili Rossiyaga ham olib ketadi.

1920 yilda Xiva xonligi tugatilib Xorazm Xalq Respublikasi tashkil etilgach, Xudoybergan Devonov jadid do'stlari bilan yosh respublikaning hukumat tarkibiga kiradi. Moliya noziri, taftish komissiyasi raisi kabi lavozimlarda ishladi va O'rta Osiyoda birinchi bo'lib Xorazm qog'oz fabrikasini qurishga intiladi.

Shogirdlari bilan fotokinolavhalarni suratga oldi. Keyin esa "Uzbekistanskaya pravda" gazetasining Xorazmdagi, Moskvadagi "Sovkino" ning O'zbekistondagi maxsus muxbiri bo'lib, suratlar oldi. Xudoybergan Devonov 1937-yil avgust oyida "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olinadi va 1938 yil oktyabrida otuvga hukm qilingan.



Xorazm jadid ma'rifatparvarlarining ayol namoyondalaridan biri Sultonmurodova Maryam Jumaniyozovna 1905 yil 13 fevralda Xiva shahrida tug'ilgan. Jumaniyoz Sultonmurodov taraqqiyparvar inson sifatida 1911 yil qizi Maryamni Urganchdagi jadid maktabiga bergan. Maryam u yerda besh yil o'qigach, oilasi ko'chishi sabab To'rtko'ldagi jadid maktabida ta'limni davom ettirdi.

Maryam Sultonmurodova Toshkentdagi maorif maktabi gimnaziyasida o'qidi, so'ngra oliy ma'lumot olish maqsadida Orenburg tatar pedagogika institutiga o'qishga kirdi. 1921- yil yozgi ta'tilda yurtiga kelgan Maryam Xorazm respublikasi adabiy bo'limiga, so'ng ayollar bo'limiga rahbarlikka tayinlandi.

Maryam Sultonmurodova Berlin universiteti qoshidagi olti oylik tayyorlov kursida o'qidi. So'ng Darmshtadt shahridagi "Viktoriya" o'qituvchilar seminariyasiga kirib ikki yil ta'lim oldi. 1926-27 yillarda esa Potsdamdagi "Fraunshul" ayollar maktabida amaliyot o'tadi. Maktabdagi amaliyoti izidan Maryam Berlindagi professor Genrix Finkelshteynning olti oylik hamshiralik kursini o'qib bitirdi va O'zbekistonga qaytdi.

Maryam Sultonmurodova O'zbekistonga kelishi bilan so'roq ta'qiblar boshlanib ketdi. Avvaliga hech joydan ish berilmadi. Faqat 1929 yil fevralida Germaniyada ta'lim olgan Badri Sayfulmulk yordamida O'zbekiston Sog'liqni saqlash komissarligiga qarashli bolalik va onalikni asrash institutiga hamshira bo'lib ishga kirishga muvaffaq bo'ldi.

Maryam 1929-yil oxirida Asqar Axmadbekov bilan oila qurib, to'rt yil Kattaqo'rg'onda yashadi. Eri qamoqqa olingach, 1933-yil Toshkentga qaytib O'rta Osiyo davlat universitetida, "Guliston" va "Yorqin turmush" jurnallarida ishladi. 1937-yil sentyabrida Maryam Sultonmurodova olti yil Germaniyada o'qigan davrida "Turkiston" josuslik tashkiloti a'zosi bo'lgan degan ayblov bilan qamoqqa olindi. Maryam Sultonmurodova 10 yillik qamoq jazosiga hukm etildi.

U jazoni dastlab Toshkent, so'ng Qozon va Suzdal turmalarida o'tadi. Keyin uzoq Kolima oblastiga yuborilib, Magadandagi "Dalstroy" qurilishida 1947-yil 13 sentyabrgacha azob-uqubat chekdi. Farzandlari va qardoshlari sog'inchi unga o'limni yo'latmadi. Jazo muddati tugagach vatanga qaytib, Urganch tumanidagi Yangibozor fuqarolar yig'inida hamshira bo'lib ish boshladi. Biroq, uning xursandchiligi yana uzoqqa bormadi. U 1949 yil 30-martda qayta qamoqqa olindi va uzoq Krasnoyarsk O'lkasiga surgun qilindi. Ikki surgundan omon qolgan ziyoli Maryam Sultonmurodova 1957-yil 2-avgustda oqlandi. Maryam Sultonmurodovaning ta'qiblar va tazyiqlarga to'la umr yo'lini kechirdi, lekin ijoddan, yoshlarga ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etishdan, ijoddan to'xtamadi. U 1971-yilda vafot etdi. Maryam Sultonmurodovaning "Rahmat desinlar", "Majnuntol", "Qalbim nidosi", "Mehr ko'zda", "Karvonlar kelganda",

"Kutilmagan baxt", "Betamiz yigit" nomli hikoyalar xalqimiz adabiy merosidan joy olgan.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, sizlarga Xorazm jadid nomayondalari kimlar bo‘lga va ular qanday ishlarni amalga oshirganligi haqida ma’lumotlar, yangi bilimlar taqdim etdik. Keling endi Xorazm jadidlarining ijodiddan baxramand bo‘lsak.

1. Xorazm jadidchilik harakati asoschilaridan biri Islomxo‘janing bunyodkorlik ishlari

Islomxo‘ja minorasi – Ichan qal’a qadimiy yodgorlik majmuasining eng baland va navqiron minorasi. Ichan qal’a majmuasidagi bu minora, Islomxo‘ja majmuasi tarkibiga kiruvchi shu nomdagi madrasa bilan birga joylashgan. Bu Xivaning eng baland binosi bo‘lib, xalq tilida “Uzin minora” deb ham ataladi.



Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, 56,6 metr ko‘rsatkichi bilan O‘rta Osiyodagi ikkinchi eng baland minoradir.

Minora va Islomxo‘ja madrasasi qurilishi Xiva xonligi hukmdori Asfandiyorxonning bosh vaziri hamda jadidchilik harakati asoschilaridan biri bo‘lgan Islomxo‘ja tashabbusi bilan 1908-yilda qurila boshlangan. Minora va madrasa qurilishida taniqli me’mor Xudoybergan hoji, shuningdek, mohir naqqosh Eshmuhammad Xudoyberdiyev, Bolta Voisovlar ishtirok etgan. Ikkala ob’ektning qurilishi 1910-yilga kelib tugallandi. Minora shaharning deyarli hamma tomonidan ko‘zga yaqqol tashlanib turadi.

Minoraning tagidagi diametri 9,5 metrni tashkil qiladi. Ustun ichida g‘ishtli spiral zinapoya rotunda platformasiga olib boradi. Bir vaqtlar minora bir qancha vazifalarni bajargan. U ham kuzatuv minorasi edi, ham diniy funksiyaga ega edi, xususan, u eng yaqin masjidga azon (musulmonlarni namozga chaqirish) uchun

ishlatilgan. Bundan tashqari, aholini eng yaqin maydonga hukmdorlar farmonlarini o‘qish uchun taklif qilish va boshqa holatlar uchun foydalanilgan.

Islomxo‘ja 1902-yilda Xiva xonligidagi birinchi zamonaviy shifoxona qurdirgan. Bu shifoxonada dastlab rus shifokorlari, mahalliy shifokorlar faoliyat yuritganlar. Ayniqsa jarrohlik sohasida katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritganlar.

Shuningdek Islomxo‘ja Xivadagi birinchi telegraf-pochtani qurdirgan. Bu telegraf Xivada ilk kommunikatsion texnologiyalarning rivojiga asos bo‘lgan.

2. Birinchi o‘zbek operatori X.Devonov suratga olgan tarixiy film nomoyish etiladi. <https://youtu.be/IyTAtIUG4nM>

3. Avaz O‘tarning jadidlar g‘oyasini ifodalovchi ijod namunalari:

“FIDOYI XALQIM O‘LSUN TANDA JONIM”

Fidoyi xalqim o‘lsun tanda jonim,
Bo‘lib qurbon anga ruhi ravonim.
Gar o‘lsam dardbadar mazlumlar uchun,
Budur maqsudi qalbi notavonim.
Mani solsa fano yo‘liga davron,
Yurur ustimdin avlodi zamonim.
Umidim: yashasin maktab bolasi,
Alar har biri bir she‘ri jayonim.
Na yaxshi o‘ylakim, ma‘qul-u manzur
Avaz, xalqim uchun to‘kulsa qonim.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar jadid ma‘rifatparvarlarimiz ijodidan qanday taassurotlar oldingiz?

O‘quvchilar: o‘z taassurotlari va fikrlarini bildiradilar.

O‘qituvchi: aziz o‘quvchilar, keling endi Xorazm jadidchilik harakatlari nomoyondalari va ularning amalga oshirgan bunyodkorlik, ma‘rifiy yuksalishga xizmat qilgan ishlari haqida egallagan bilimlaringizni mustahkamlab olsak. Sizlarga katakli jadvalni taqdim qilamiz. Bu jadval kataklarida berilgan ma‘lumotlarga qarab, to‘ldirilmagan katakka ma‘lumot yozasiz!

Ism va familiyasi	Ma‘lumoti	Lavozimi va faoliyati	Amalga oshirgan ishlari	Qatag‘on qurboni
	Xivadagi maktab va madrasa tahsil olgan.		Xivada madrasalar, Uzun minora, birinchi shifoxona,	Islomxo‘ja 1913-yilda 9-avgustda suiqasddan o‘ldirilgan.

			birinchi telegraf-pochta qurdirgan. Ta'lim, madaniyat, boshqaruv, iqtisodiy islohatlar o'tkazgan.	
Avaz O'tar	Dastlab Xivadagi eski maktabda, keyin esa Madaminxon madrasasida tahsil oladi. Xorazm ma'rifatparvar shoirlaridan.			35-yoshida bevaqt vafot etgan.
	Vilgelm Vennerdan 1890 yildan boshlab foto, 1907 yildan esa kino sirlarini o'rgangan.	Birinchi o'zbek operatori, fotosuratchisi va rejissori		1937-yil avgust oyida "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olinadi va 1938 yil oktyabrda otuvga hukm qilingan.
Bobooxun Salimov	Xiva shahridagi Olloqulixon madrasasida tahsil olgan.			1929 yil 10 mayda o'z uyi atrofida qatldan o'ldirib ketilgan.
		Jadid ma'rifarparvar ayollardan bo'lgan. Bolalik va onalikni asrash institutida hamshira bo'lib hamda , "Guliston" va "Yorqin turmush"		1937-yil Germaniya o'qigan 6 yil maboynida josuslik qilgan degan ayblov bilan 10 yilga qamalgan. 1949 yil 30-martda qayta qamoqqa olindi va uzoq

		jurnallarida ishlagan.		Krasnoyarsk O'lkasiga surgun qilindi.
--	--	---------------------------	--	---

Yakunlovchi qism

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, Sobiq Ittifoqning tarixiy sahifalarida millionlab fuqarolarning qonlari bilan yozilgan sahifalari mavjud bo'lib, bu mustabid sovet tuzumining qatag'onlik siyosatidir. Bu qatag'on siyosatining birinchi va asosiy qurbonlari jadidlar, ziyoli insonlar, erksevar ma'rifatparvarlar bo'lishgan. 30-yillardagi qatag'onda o'zbek xalqining eng iste'dodli namoyandalari yo'q qilindi. Ularga turli ayblar qo'yilib, har xil bahonalar bilan qatl qilindi. XX asrning 30-yillariga kelib jahon xaritasida mutlaqo qayd etilmagan "Gulag" lagerlari tashkil topdi. Uning fuqarolari haq-huquqsiz Sovet Ittifoqi qahramonlari, mashhur fan arboblari, mohir diplomatlar, shoirlar, yozuvchilar, rassomlar yoki nomlari hech kimga ma'lum bo'lmagan ishchilar, kolxozchilar va boshqa kasb egallari edi. Siz yuqorida tanishga Xorazm jadidchilik harakati vakillari ham qatag'on zulmiga uchraganlar. Ular yurtimizni taraqqiy etishi, yoshlarimizni, xalqimizni ta'lim olishi, ijodiy-madaniy yuksalish, iqtisodiy faravonlik bo'lishini istaganlari va shu yo'lda qattiq harakat qilganlari uchun qatag'on qurboni bo'lishgan.

Aziz o'quvchilar, har bir millat va elatning o'z tarixi bor. Tarix zamirida esa, milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarga hurmat, ajdodlar xotirasiga ehtirom tuyg'usi mujassam. Biz qatag'on qurbonlari bo'lgan buyuk jadid ma'rifatparvarlari, ziyoli ajdodlarimizni merosini o'qib, o'rganib, qadru qimmatini, mohiyatini anglab yetmog'imiz, ularning bunyodkorlik, ijodkorlik yo'lidan yurmog'imiz, ularning ma'rifat gulshaniga yangi ijod nihollarini o'tkazmog'imiz bizning avlodlik va insoniylik burchimizdir. Huddi shunday ezgu xotira ishlaridan biri Xorazmda Ma'mun universiteti hududida "Jadidlar bog'i" barpo etilgan bo'lib, ularning partretlari, hikmatlari, so'lim gulzor, go'zal darxtnlar bilan bu bog' bugungi kunda xorazmlik yosh ijodkorlarning sevimli ijod go'shasiga aylangan. Biz ham jadid bobolarimiz sharafiga sinfimizda "Jadidlar ijod burchagi" yaratsak nima deysizlar.

Sizlardan ushbu loyihaga oid fikr va takliflaringizni kutib qolaman. Xayr, salomat bo'ling! **Etiboringiz uchun rahmat!**